

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhoyo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obitovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbosxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	



YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Hakimov Feruz Xurshid o'g'li

mustaqil izlanuvchi

ORCID ID: 0009-0000-4214-7906

Annotatsiya. Maqolada Yevropa Ittifoqi davlatlarining soliq siyosatini shakllantirishdagi ilg'or tajribasi hamda uni Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq yukini optimallashtirish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va raqamli soliq ma'muriyatchiligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif Yevropa tajribasi asosida shaffof, inklyuziv va raqamli soliq boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish zarurligini asoslagan.

Kaliit so'zlar: soliq siyosati, fiskal barqarorlik, soliq imtiyozlari, raqamlashtirish, soliq ma'muriyatchiligi, iqtisodiy integratsiya.

Abstract. The article analyzes the advanced experience of the European Union countries in the formation of tax policy and the possibilities of its application in improving the tax system of Central Asia, in particular, Uzbekistan. The study covers the issues of optimizing the tax burden, strengthening fiscal stability, and developing digital tax administration. The author substantiates the need to introduce transparent, inclusive, and digital tax administration mechanisms based on European experience.


Keywords: tax policy, fiscal stability, tax incentives, digitalization, tax administration, economic integration.

Аннотация. В статье анализируется передовой опыт стран Европейского союза в формировании налоговой политики и возможности его применения для совершенствования налоговой системы стран Центральной Азии, в частности Узбекистана. В исследовании рассматриваются вопросы оптимизации налоговой нагрузки, укрепления фискальной стабильности и развития цифрового налогового администрирования. Автор обосновывает необходимость внедрения прозрачных, инклюзивных и цифровых механизмов налогового администрирования на основе европейского опыта.

Ключевые слова: налоговая политика, фискальная стабильность, налоговые льготы, цифровизация, налоговое администрирование, экономическая интеграция.

Globalizatsiya va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida soliq siyosati mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari o'z soliq tizimlarini izchil ravishda modernizatsiya qilish, soliq yukini maqbullashtirish, soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliq ma'muriyatchiligini elektronlashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida so'nggi yillarda soliq tizimlarini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlar tashlangan bo'lib, qator tizimli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida soliq stavkalarini unifikatsiyalash, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, elektron hisobot tizimini joriy etish va soliq qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kabi muhim yo'nalishlar mavjud. Shunga qaramasdan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining soliqqa tortish sohasidagi ilg'or tajribalarini chuqur tahlil qilish va ularni Markaziy Osiyo davlatlarida qo'llash orqali soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday takomillashtirish soliq yukini adolatli taqsimlash, soliq yig'uvchanligini oshirish, biznes muhitini yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining soliq siyosati, soliq ma'muriyatchiligi, soliq imtiyozlari, soliq nazorati va soliqqa oid qonunchilikni qo'llash tajribalarini o'rganish Markaziy Osiyo davlatlariga o'z soliq tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim yo'nalishlarni belgilab olishga yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. 2000—2022-yillarda Yevropa Ittifoqi davlatlarida davlat xarajatlari, soliq tushumlari va budget balansining dinamikasi (YaIMga nisbatan, % hisobida)¹.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqida (EU-27) umumiy soliq yuki nisbatan yuqori bo'lib, o'rtacha 40% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich ko'plab a'zo mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi va keng ijtimoiy himoya an'analari bilan izohlanadi. Yuqori davlat xarajatlari odatda yuqori soliq yukiga hamroh bo'ladi. Kutilganidek, eng past soliq–YaIM nisbatlari Irlandiya (27,4%), Ruminiya (27,6%), Latviya (29,3%), Bolgariya va Litvada (29,5%) kuzatilgan. Aksincha, eng yuqori ko'rsatkichlar Daniya (47,0%), Belgiya (45,9%), Fransiya (45,8%) va Shvetsiyada (44,4%) qayd etilgan. Ulardan keyingi o'rinlarda Avstriya (42,8%), Finlyandiya (42,6%), Italiya (41,5%) va Germaniya (40,0%) joylashgan. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqida davlat xarajatlari va soliqlar bir-birini bevosita to'ldiradi – yuqori ijtimoiy himoya darajasi yuqori fiskal yukni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham davlat xarajatlari va soliq yuki o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlash muhim bo'ladi.

O'tkazilgan empirik tadqiqotda Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan tahlillar orqali inklyuziv rivojlanishga erishishda soliqlarning ta'siri aniq ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlil qilingan. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar o'rganilgan hamda umumiy yondashuvdan foydalanilgan. Panel Least Squares (PLS) baholash usuli PLS baholash tnglamasi orqali ham soliqlarning inklyuziv samadorlikka erishsida davlat budjeti parametrlariga ta'siriga oid tahlillar amalga oshiramiz:

$$Y_{it} = \alpha + \beta X_{it} + \varepsilon_{it}$$

bu yerda:

$i \rightarrow$ mamlakat yoki firma,

$t \rightarrow$ vaqt,

$Y_{it} \rightarrow$ bog'liq o'zgaruvchi (masalan, YaIM o'sishi),

$X_{it} \rightarrow$ mustaqil o'zgaruvchilar (masalan, soliqlar, davlat xarajatlari),

$\varepsilon_{it} \rightarrow$ xatolik.

PLS baholash jarayonida barcha i va t bo'yicha kuzatuvlar birlashtiriladi, keyin esa xuddi OLS uslubida regressiya o'tkaziladi.

PLS – xuddi shu printsip, lekin panel ma'lumotlarda (kesim + vaqt) qo'llaniladi. Shuning uchun u kesimlararo (cross-section) va vaqt qatorlari (time-series) o'zgaruvchilarini birgalikda hisobga oladi.

Mazkur ekonometrik tahlil orqali Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida amalga oshirilgan tahliliy islohotlarni Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi soliqlarning inklyuziv o'sishga bo'lgan ta'siri o'rganishda, davlat xarajatlarning samadorligini mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni umumiy tahlilini amalga oshirishda tajriba sifatida qo'llash mumkin. Quyida 3 ta asosiy Modellar asosida solishtirma tahlil amalga oshirilgan (2-rasm).

¹ European Commission. Eurostat Database. Available at: <http://ec.europa.eu/eurostat> (accessed: 10.06.2024)

Variable	Model 1	Model 2	Model 3
(Constant)	12.2345*** (13.1757)	11.6012*** (11.3295)	12.1569*** (9.6694)
GOV_EXP	-0.4589*** (-13.2822)	-0.4454*** (-12.0749)	-0.3875*** (-11.2793)
TAX (-1)	0.2942*** (7.4927)		
IND_TAX (-1)		0.3806*** (5.5732)	
DIR_TAX		0.2354*** (5.5744)	
SSC		-0.2523*** (-4.4739)	-0.1377*** (-2.5783)
PIT			0.2029*** (4.0613)
CIT			0.3269*** (3.0289)
VAT (-1)			0.2977*** (2.5139)
EXCISE (-1)			0.2894* (1.8711)
PROP (-1)			0.8559*** (2.9288)
R-squared	0.261365	0.252037	0.239789
Adjusted R-squared	0.258866	0.246958	0.230708
Akaike info criterion	5.243937	5.263221	5.289565
Schwarz criterion	5.266093	5.300148	5.348648
Durbin-Watson statistic	1.763014	1.799286	1.771954
F-statistic	104.5625	49.61811	26.40549
Prob(F-statistic)	0.0000	0.0000	0.0000
Observations	594	594	594

2-rasm. Panel Least Squares (PLS) baholash usuli

Bu jadval uch xil regressiya modeli (Model 1, Model 2, Model 3) natijalarini ko'rsatmoqda. Endi ustunlar va natijalarni bosqichma-bosqich izohlaymiz:

1-model (umumiy xarajalar)

Constant – regressiya tenglamasidagi doimiy o'zgarmas had. Har uchala modelda ham u musbat va statistik jihatdan sezilarli.

Davlat xarajatlari. U har uchala modelda ham manfiy va sezilarli. Bu shuni anglatadiki, davlat xarajatlari ortishi iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliqlar (kechikkan qiymati). Model 1 va 2 da ijobiy va sezilarli, ya'ni soliqlar o'sish bilan bog'liq.

2-model (soliq turlarini ajratgan holda)

Bilvosita soliqlar. Ko'rsatkich ijobiy va sezilarli (0.3806). Bu bilvosita soliqlar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatadi.

To'g'ridan-to'g'ri soliqlar. Ham ijobiy va sezilarli (0.2354). Bu juda qiziq, chunki ko'p tadqiqotlarda ular o'sishga salbiy ta'sir qilishi kuzatilgan.

3-model (aniq soliqlar bo'yicha)

Ijtimoiy badallar – manfiy va sezilarli (-0.1377). Demak, ijtimoiy badallar o'sishni cheklab qo'yadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – ijobiy va sezilarli (0.2029).

Korporativ (foyda) soliq – ijobiy va sezilarli (0.3269).

QQS ham ijobiy va sezilarli (0.2977).

Aksiz soliqlari ham ijobiy, lekin sezilarligi biroz pastroq (0.2894).

Mulk solig'i kuchli ijobiy ta'sirga ega (0.8559).

Statistik ko'rsatkichlar

1. R-squared – Model 1 uchun 0.261, Model 2 uchun 0.252, Model 3 uchun 0.239. Bu regressiyalar YalM o'sishining taxminan 24–26% qismini tushuntiradi.

2. Durbin-Watson – 1.76–1.77, bu avtokorrelyatsiya kuchli emasligini bildiradi.

3. Prob(F-statistic) – 0.0000 → barcha modellar statistik jihatdan sezilarli.

4. Davlat xarajatlari iqtisodiy o'sishni pasaytiradi. Soliqlarning ba'zi turlari (DS, KS, QQS va mulk soliqlari)

5. Ijtimoiy badallar esa iqtisodiy o'sishni cheklab qo'yadi.

6. R² unchalik yuqori emas, demak, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yevropa mamlakatlarida soliq siyosati mukammal shakllantirilgan bo'lib, ularning inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir. Yevropa Ittifoqi tajribasi Markaziy Osiyo davlatlari uchun soliq tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim namuna vazifasini o'taydi. Germaniya va Fransiya misolida soliqlar



hamda ijtimoiy badallarning YalMdagi katta ulushi davlat byudjetiga barqaror tushum keltirib, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya kabi sohalarga uzluksiz moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'minlamoqda. Bu esa Markaziy Osiyo uchun soliq bazasini kengaytirish, norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy sohaga o'tishni rag'batlantirish va QQS boshqaruvini raqamlashtirish zarurati ko'rsatadi. Daniya va Fransiyada kuzatilganidek, progressiv shaxsiy daromad solig'i oilaviy qo'llov va maqsadli transferlar bilan uyg'unlashganda, daromad tengsizligini samarali qisqartiradi. Ushbu tajriba O'zbekistonda past va o'rta daromadli oilalarni qo'llash hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash uchun dolzarb mexanizm bo'lishi mumkin.

Raqamli boshqaruv sohasida ham Yevropa ilg'or tajribaga ega: Germaniyaning tizimi yoki Daniya onlayn soliq portallari soliq to'lovchilarga qulaylik yaratib, shaffoflikni kuchaytiradi. Shu sababli Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun elektron hisob-fakturalar, xavfga asoslangan audit va yagona soliq identifikatori tizimini joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Shveysariya misolida esa hududiy inklyuziya tajribasi diqqatga sazovor. Federal, kanton va kommunalar o'rtasida fiskal vakolatlarining muvozanati hududiy ehtiyojlarni qondirish va xizmatlarga teng kirishni ta'minlaydi. Mintaqa mamlakatlarida ham hududiy soliq vakolatlarini kengaytirish va tenglashtirish mexanizmlarini shakllantirish hududlararo tafovutlarni kamaytirishi mumkin. Daniya va Italiya tajribasi esa mehnat bozorida soliq yuki haddan tashqari og'irlik qilmasligi uchun ijtimoiy badallarni kamaytirish yoki selektiv imtiyozlar berish zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv Markaziy Osiyoda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, rasmiy bandlikni kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa Ittifoqi tajribasi soliq siyosatini faqat byudjetni to'ldiruvchi mexanizm sifatida emas, balki inklyuziv rivojlanishni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida namoyon etmoqda. Markaziy Osiyoda esa soliq bazasini kengaytirish, progressivlikni kuchaytirish, raqamli boshqaruvni rivojlantirish va hududiy tenglikni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sish natijalarini keng qatlamlarga yoyish mumkin bo'ladi. Shu orqali mintaqa barqaror, adolatli va inklyuziv taraqqiyot yo'lini tanlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. European Commission. Eurostat Database. Available at: <http://ec.europa.eu/eurostat> (accessed: 10.06.2024).
2. OECD: Taxing Wages 2024. https://www.oecd.org/en/publications/2024/04/taxing-wages-2024_f869da31.html
3. OECD Global Tax Revenues – Revenue Statistics (France). <https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/topics/policy-sub-issues/global-tax-revenues/revenue-statistics-france.pdf>
4. European Commission Digital Tax. https://ec.europa.eu/taxation_customs/business/company-tax/digital-economy-taxation_en
5. IMF Executive Board Concludes the 2024 Article IV Consultation with the Republic of Kazakhstan. <https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/01/30/pr25021-kazakhstan-executive-board-concludes-2024-article-iv-consult>
6. <https://taxsummaries.pwc.com/republic-of-uzbekistan/individual/taxes-on-personal-income>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100